

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasи	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmадjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika olyi o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni	377
I.Kirgizov	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbanova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



УО'К: 378: 091.12:004

**IJODKOR ONGIDA BADIY TAFAKKUR HOLATINI O'ZGARTIRISHGA SABAB
BO'LUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ИЗМЕНЕНИЕ СОСТОЯНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО
МЫШЛЕНИЯ В ТВОРЧЕСКОМ РАЗУМЕ**

**FACTORS CAUSING CHANGES IN THE STATE OF ARTISTIC THINKING IN THE
CREATIVE MIND**

Qurbanova Barchinoy Mirzahamdamovna 

Farg'ona davlat universiteti Tasviriy san'at kafedrasi mudiri Pedagogika fanlari bo'yicha
falsaфа doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar haqidagi fikr va mulohazalar keltirilgan. Tafakkur – san'at asarini idrok etish jarayonining dastlabki sintezida - yaxlit, keyin esa ikkilamchi sintezda, ya'ni muallifning fikrini umumlashtirish maqsadida tomonlar, qismlar, detallarini (kompozitsiyasi, alohida shakl, rang-tuslari va shu kabilalar) tahlil qilishda ifodalananadi.

Аннотация

В данной статье представлены мысли и мнения о факторах, вызывающих изменение состояния художественного мышления в сознании творца.

Мысль выражается в первоначальном синтезе процесса восприятия художественного произведения – в целом, а затем во вторичном синтезе, т. е. в анализе сторон, частей, деталей (композиции, отдельных форм, цветов и т. д.) с целью обобщить мнение автора.

Annotation

This article presents thoughts and opinions about the factors that cause a change in the state of artistic thinking in the mind of the creator. The thought is expressed in the initial synthesis of the process of perceiving a work of art – as a whole, and then in the secondary synthesis, i.e. in the analysis of sides, parts, details (composition, individual forms, colors, etc.) in order to generalize the opinion of the author.

Kalit so'zlar: tafakkur, **fikr**, ijodkor, idrok, sintez, detal, kompozitsiya, rang-tus.

Ключевые слова: мышление, мысль, творец, восприятие, синтез, деталь, композиция, цвет.

Key words: thinking, thought, creator, perception, synthesis, detail, composition, color.

KIRISH

Inson ongidagi badiiy tafakkur bevosita san'at asarlarida tasvirlangan narsa-hodisalar hamda ular o'rtasida mavjud bo'lgan muhim belgilarni tahlil qilish, bog'liqliklarini ochib berishdir. Olimlar bu jarayonni chuqur va aniq faktlar asosida tahlil qilishga harakat qilganlar. Bu chuqur badiiy idrok etish jarayoni bo'lib, uning asosi bilim va amaliyotdan iborat bo'ladi. L.P.Samoylovning fikricha, u «Bo'lajak o'qituvchilarining quyidagi qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi:

o'tkir idrok, uning yaxlitligi;

xotira, shu jumladan, assotsiativ xotira;

moslashuvchan tafakkur, uning asosiligi va mantiqiyligi;

san'at asarlarining badiiy-estetik tomonlarini baholash, yakuniy tahlil qilish xulosa chiqarishgaoid qobiliyat;

mustaqil va ishonchli tafakkur, uning o'ziga xosligi va ijodiyo yo'nalgaligi».

Tahlil qilinayotgan badiiy tafakkurga, idrok etilayotgan asarni qismlar va elementlarga ajratish sifatida qaraymiz. Ushbu jarayonda biz bir hodisaning (badiiy tafakkurning) ikki tomonini (tahlil va sintez qilish), jarayonning muhim tomonlarini ko'ramiz.

Tafakkur – san'at asarini idrok etish jarayonining dastlabki sintezida - yaxlit, keyin esa ikkilamchi sintezda, ya'ni muallifning fikrini umumlashtirish maqsadida tomonlar, qismlar, detallarini (kompozitsiyasi, alohida shakl, rang-tuslari va shu kabilalar) tahlil qilishda ifodalananadi. U birinchi

PEDAGOGIKA

navbatda tafakkur – tahlilninghar bir bosqichida zarur bo‘ladigan ma’lum bilimlar majmuasi bilan bog‘liq. Badiiy asarning barcha komponentlari xayoliy ishlab chiqiladi, fikrlash yagona vaaniq nazariy talqin, tushunishga yo‘naltiriladi. Hissiy idrok etish – nazariy tafakkur hamda amaliy umumlashtirish sxemasi bo‘yicha sodir bo‘ladi. Umumlashtirish amaliyoti nutqda ifodalanadi. Tafakkurning umumlashuvi san‘at asari elementlarining ma’lum badiiy tuzilishi ko‘rinishida, modellashtiriladigan badiiy idrok jarayonida va mana shu elementlarning o‘zaro munosabatlari hamda o‘zaro aloqasi yordamida sodir bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy idrok etish jarayonida obrazli va ramziy tafakkur sodir bo‘ladi (obrazlar tafakkuri konkret tafakkur hamda tushunchalar tafakkuri - abstrakt tafakkur).

Asarni idrok etuvchi tafakkurini umumlashtiradi, alohida holatlarda uning umumiyl qonuniyat ifodasini ko‘radi. Badiiy tafakkur muvaffaqiyatli idrok etishning fikrlash sintez-analiz- sintez yaxlitligiga bog‘liq bo‘ladi.

Quyidagi tafakkur shakllaridan foydalaniladi:

mulohaza-asarda aks ettirilgan narsa-hodisaga o‘z fikri, munosabatini ifoda etish, asoslab berish, isbotlash, keltirilayotgan dalil mulohazaning mantiqiylilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

xulosa chiqarish - mavjud ma’lumotlardan induktsiya (xususiydan umumiyya) va deduktsiya (umumiyyadan xususiyga) yordamida xulosa chiqarish; shu bilan birga induktsiya va deduktsiyaning yaxlitligini esdan chiqarmaslik kerak.

A.Rasulovning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining axloqiy jihatlari uning qiyofasini belgilovchi o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradigan yo‘nalishuvchi holatdir [6,b.25].

Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini tarbiyalash va rivojlanirishning asosiyl maqsadlaridan biri – ularni yuksak kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlari kasbiy mahoratiga qo‘ylgan talablardan biridir.

O‘zbekistonlik olimlar - M.Axmedov, S.R.Bekmatovlarning ishlari estetika va estetik tarbiya masalalari o‘quvchilarni badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish jarayonida ochib berilgan. Ayniqsa, N.V.Gilmanovning tadqiqotlarida badiiy idrok, badiiy tafakkurning muhim parametrleridan biri-rang va yorug‘lik munosabatlariga oid ilmiy g‘oyalari, xulosalar hamda olingan amaliy natijalar e’tiborga molik. A.P.Sulaymonovning izlanishlarida tasviriy san‘at vositasida tarbiyaning turli tomonlari jumladan, «Tasviriy san‘at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari, badiiy tafakkurning muhim elementlari-zamonaviylik va tarixiylik, Sharq va G‘arb tasviriy san‘atining sintezi» [5,145], masalalari tadqiq etilgan bo‘lsa, S.X.Fayzulinanining izlanishlarida O‘zbekistonda estetik tarbiyaning shakillanishi va rivojlanishining metodologik jihatlari taqiq etilgan. R.Xasanovning tadqiqotlarida tasviriy san‘at darslarida mahalliy materiallardan foydalanish masalalari [8, b. 33–34], O.M.Jabborova tadqiqot ishlari badiiy idrok etish muammolariga e’tibor qaratilgan [80, b. 29].

Olim va san‘atshunoslar tomonidan bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida badiiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash tizimi, shu jumladan, ularni kompleks yoki ma’lum o‘zaro bog‘liqlikda maktab amaliyotiga tayyorlash muammosi maxsus tadqiq etilmagan. «Shu ma’noda bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida badiiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlashmasalasizamoniaviy badiiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir».

Badiiy tafakkur – bu vazifalar, ularni hal qilish usullarini topish, harakatlarni belgilash hamdir (sintez, analiz, umumlashtirish, abstraklash va konkretlashtirish).

Tafakkurning barcha turlaridan foydalanish muhimdir:

- san‘at asarini bevosita idrok etishda tayanuvchi aniq amaliy tafakkur;
- tasavvurlarda aks ettiriladigan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur;

- nazariy masalalarni hal qilish hamda badiiy-estetik idrok etishning (tahlil qilish) mantiqiyligi bilan bog‘liq abstrakt nazariy tafakkur.

Ongdagи badiiy tafakkur san‘at asarining badiiy g‘oyasini materiallashtirishga qaratilgan yorqin obrazli tafakkur turi hisoblanadi. Ushbu g‘oyanining obrazli ifodalanishi, idrok etuvchi shaxsning badiiy-estetik faoliyatidan boshqa narsa emas.

Ongdagи tafakkur, badiiy tafakkur – aqliy, ma’naviy va umumiyl badiiy-estetik rivojlanishining muhim omilidir. O.M.Jabborovaning aytishicha, «aqliy rivojlanish badiiy idrok etish jarayonida talabalarning qiziquvchanlik, tirishqoqlik, chaqqonlik va harakatchanlik, mantiqiy hamda tanqidiy

tafakkur kabi sifatlari rivojlanadi hamda takomillashadi, umuman olganda, shaxs rivojlanadi [27, b. 78–79]. Ko'rsatib o'tilgan sifatlardan tashqari badiiy tafakkur orqali shaxsning hayotiy tajribasi takomillashadi, qiziqishlari doirasi kengayadi, hissiyotlari kuchayadi (emotsional-estetik), ular chuqurlashadi, tafakkur darajasi oshadi (ular yanada mukammal bo'ladi), irodasi kuchayadi, aqliy madaniyati sezilarli darajada o'sadi, aqliy faoliyati faollashadi (san'at sohasidagi bilimga intilishi; yangilikni, o'ziga xoslikni, ajoyiblikni ko'radi bilishi, uning mohiyatini tushunishi, asosiysini, muhimini tushunib yetishi, ajratib ko'rsatishi; faqatgina badiiy idrok etish emas, balki umuman tafakkur amaliyotida turli operatsiya turlarini qo'llashi)» [14,b.125].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, badiiy tafakkur san'at to'g'risida, uning aniq bir turi to'g'risidagi bilimlarni talab etadi. Badiiy tafakkur bevosita san'at asarini emotsiyalidok etishdan boshlanadi. Unda, albatta, hukm elementi mavjud bo'ladi. Badiiy tafakkurning markaziy bo'g'ini-mantiqiy-tahliliy tafakkur shakllanadi.

Shu bilan birga, badiiy tafakkur idrok etuvchining nazariy hamda amaliy bilim darajasini oshirishga yo 'naltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy metodik manbalar, badiiy ta'lif amaliyotining holatining tahlillari badiiy tafakkur xususiyatlari darajasiga kelsak, uning quyidagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanishiga asos bo'ldi:

xissiy-psixologik idrok etish;

intellektual - badiiy-tahliliy tafakkur, umumlashtirilgan «ko'radi bilish» (talab etish) darajasida baholash;

xissiy-psixologik qiziqish, istak, ijobiy munosabat, emotsiyalidok ta'sirchanlik, irodaviy tayyorlikni baholash kabilari.

Shunday qilib, badiiy tafakkur badiiy asarning barcha komponentlari g'oyaviy-badiiy mazmunini moddiylashtirish orqali xayolan ishlab chiqishdan iboratdir [9,b.15].

Misolimizda element (frantsuzcha element, lotincha elementum-murakkab va yaxlitning, tizimning bir bo'lagi) atamasi o'quvchilarda shakllantiriladigan badiiy tafakkurning tarkibiy qismlari bo'lib, har bir element faqat ungagina xos bo'lgan funktsiyani bajarib, mazmun va talqin integratsiyalashib yaxlit badiiy tafakkur elementlarini tashkil etadi.

Olimlar olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30% da barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflarayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan iborat. SHuningdek, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsaddir. «Yaratiladigan sharoitlar ham turlicha komponentlardan iborat bo'lib, har biri o'quvchida shakllantiriladigan badiiy tafakkurning u yoki bu elementini shakllantirishda ustuvorlik xususiyatiga ega bo'ladi» [18,b.44].

Yuqori sinf o'quvchilarini induktsiya va deduktsiya metodlarini egallab, kuzatish va tarjibalarga tayanib, hodisalarining sabablarini mustaqil qidirib topishga o'rgatila boriladi, boshqacha aytganda, savollarga to'g'ri javob berish o'quvchini qoniqtirmaydi, «Nega shunday?» ekanligini izohlab berish talab etiladi. Natijada o'quvchilar kuzatish natijalari, misol, fakt, dalillardan foydalanishni o'rganadilar. O'quvchini bunday darajaga erishishida, shubhasiz 1-7-sinflarda «Tasviriy san'at» darslarida egallagan badiiy tafakkur elementlarini muhim o'rinni tutadi.

Ushbu fikriy harakatlar yuqori sinf o'quvchilarda badiiy tafakkurni tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik jihatlariga asosan faoliyat yo'nalishlari va ularni tashkil etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladir. O'quvchilarning mazkur davrdagi yosh va psixologik xususiyatlari ma'lum yo'nalishlarda faoliyat yuritish borasidagi imkoniyatlarini sinab ko'rish, turli sohalarda, jumladan, badiiy ijodiyotda ham o'z kuchini namoyish etish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni namoyish etish hissining qaror topishiga zamin yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Psixologik sohada olib borilgan tadqiqot ishlari natijalaridan ma'lumki, o'smir yoshdagagi o'quvchilarda ijtimoiy borliqda ro'y berayotgan voqe-a-hodisalarini kuzatish, mohiyatini anglash hamda ularga nisbatan shaxsiy munosabatni bildirish va baho berish istagi kuchli bo'ladi.

Maktabda kichik yoshidagi o'quvchilardan farqli ravishda o'smirlarturmushda o'z o'rnini topishga intila boshlaydilar, ularda muayyan badiiy asarni o'rganishga bo'lgan intilish yuzaga keladi. Ular ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirot etish, shaxsiy imkoniyatlarini namoyish qilish, aksariyat holatlarda jasorat, mardlik namunalarini ko'rsatishga intiladilar. Biroq o'smirlardagi

PEDAGOGIKA

jo'shqin kuch-g'ayrat, shijoat, mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatishga bo'lgan intilish, atrof-muhitga, ijtimoiy voqea-hodisalar hamda kishilarga nisbatan romantik munosabatda bo'lish jarayonlari murakkab kechadi. Ularning yetarli darajada *hayotiy* tajribaga ega emasliklari, o'z bilimlariga ortiq darajada baho berishlari aksariyat hollarda ular tomonidan ma'lum xatoliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'ladi.

O'smirlar psixologiyasida «o'tish davri», «qiyin yosh davri» deb yuritiladi. Mazkur davrda ular ijtimoiy hayotda o'z o'rinnarini topish yo'lida dastlabki harakatlarni amalga oshira boshlaydilar. Oila sharoiti, tengdoshlari davrasi hamda o'zi mansub bo'lgan mikromuhitda tashkil etilayotgan munosabatlar jarayonida shaxsiy qarashlari, fikr- mulohazalariga ega sub'ekt sifatida ishtirok eta boshlaydi. Biroq aksariyat holatlarda o'smir organizmida kechayotgan ayrim fiziologik o'zgarishlar, ruhiyatida ro'y berayotgan «qandaydir tushunarsiz holatlar» bois ular ko'proq tengdoshlari davrasida bo'lishga intiladi. Katta yoshli kishilar bilan bo'ladigan muloqotlardan o'zlarini chetga ola boshlaydilar. Xolatning yuzaga kelishiga sabab bo'lувchi omillardan yana biri o'smirning o'zini voyaga yetgandek his etishi, kattalar bilan munosabatda unga nisbatan «u hali bola» tarzida yondashishdan voz kechishlarini talab qilishi, kattalarning esa bunday fikrga qarshi ekanliklari tufayli kelib chiquvchi ziddiyatlar ham sabab bo'ladi. SHu bois o'smir hayotida birinchi navbatda o'zi mansub bo'lgan mikromuhit yetakchi o'rin tuta boshlaydi. Bu jarayonda bola ongidagi o'zgarishlarni ijobiy mazmun kasb etishda ularning «Tasviriy san'at» darslarida tarkib toptirilgan badiiy tafakkur elementlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu holat shuni anglatadiki, mакtab o'quvchilarida badiiy tafakkurni shakllantirishni va bosqichma-bosqich rivojlantirish uzlusiz ta'limiy-tarbiyaviy jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishi bosqichlarida mazmunan to'ldirilib, rivojlantirilib boriladi.

XULOSA

Xulosa qilganda ko'plab tadqiqotchi olimlarning izlanishlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlashga doir nazariy bilimlarni targ'ib etish ijodkor ongida badiiy holatini o'zgartirishga sabab bo'lувchi omillar, yuqorida qayd etilgan psixologik xususiyatlarga tayangan holda ish ko'rish ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Bundan tashqari, mazkur ishga mas'ul etib belgilangan shaxs (o'qituvchi, sinf rahbari va boshqalar)ning yetarli darajada psixologik-pedagogik bilim va mahoratga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi N.Yuldashevanning ta'kidlashicha, «maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilaridastlab ularning shaxsiy imkoniyatlari, psixologik vafizilogik xususiyatlarini o'rganish orqali oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik va tibbiyot sohasi vakillari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka tayangan holda faoliyat yuritishga oid kommunikativ kompetentsiyalarni ham shakllantirib borish lozim»[25].

Badiiy tafakkur aslida shaxsiy sifatlarning ko'pgina komponentlari bilan uzviy aloqadorlikda kompleks tarzda takomillashtirilganda mukammal bo'ladi. Demak, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlashda kompleks yondashuv printsipini qo'llash hamda muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yuzaga keltirish talab qilinadi:

- 1) badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishning amaliyotdagagi holatini tahlil qilish;
- 2) maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini rivojlantirishning o'ziga xos psixologik-pedagogik hodisa sifatida tahlil etish;
- 3) aniqlangan ko'rsatkichlarga tayangan holda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirish jarayoniga yaxlit didaktik hodisa sifatida yondashish;

4) maktab o'quvchilarida badiiy tafakkur elementlarini shakllantirishga tayyorlash maqsadida chiqarilgan xulosalarni muayyan shakllarda tasvirlashga erishish, bunda ularning istiqbolda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash xususiyatlarini hisobga olish kabilalar.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining bo'lajak yetik mutaxassis sifatidagi muhim ijobiy sifatlaridan biri – ularning o'quvchilarga bo'lgan munosabatidir. O'quvchilarga bo'lgan munosabat o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan muhabbatidir. O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan munosabatga kirishar ekan, bu sohada uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy holatlar kasbiy bilimdonligi, umuminsoniy hamda shaxsiy sifatlari bilan bog'liqidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni.
<https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz
4. Бербаш Т.И. Формирование и развитие самостоятельности студентов в учебно-творческой мастерской художественно-графического факультета художественного-графического факультета педагогического вуза: Diss. na sois. ... kand. ped. nauk. – Lipetsk, 2005. –210 s.
5. Bigus N.V., Tsal N.N., Bigus A.N. Формирование художественно-образного мышления учащихся на основе синтеза искусств// Житомир: Наука и школа, 2015. № 6 – S. 155-163.
6. Boymurodova G. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorligining texnologik tizimi. Ped. fan. nom. dis. avtor. – Toshkent: 2009. – 24 b.
7. Бондаревская Е.В. Теория и практика личности ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: Издательство Ростовского педагогического университета, 2000. – 352 с.
8. Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015,Incheon,Republic of Korea). – P. 6.
9. Ivashkevich O. Children's drawing as a sociocultural practice: Remaking gender and popular culture. // Studies in Art Education, 2009. 51(1). – R. 50-63.

IV. Internet saytlari

1. www.connect.uz – O'zbekiston ta'lim portali
2. www.eduportal.uz- Axborot ta'lim portali
3. www.lex.uz – Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi
4. www.natlib.uz – O'zbekiston milliy kutubxonasi
5. www.uzedu.uz – O'ZR Xalq Ta'limi Vazirligi
6. www.ziyonet.uz – Axborot ta'lim tarmog'i